


2020- yil yanvar-may oylari uchun Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Toshkent viloyatida jami **2291,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **96,6 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **123,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **53,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **148,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **144,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **38,7 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.06.2019- yil	01.06.2020- yil	
Toshkent viloyati	2448	3246	132,6
Nurafshon sh.	116	160	137,9
Olmaliq sh.	164	199	121,3
Angren sh.	180	244	135,6
Bekobod sh.	132	160	121,2
Ohangaron sh.	73	100	137,0
Chirchiq sh.	198	271	136,9
Yangiyo'l sh.	62	77	124,2
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	68	92	135,3
Ohangaron	54	73	135,2
Bekobod	90	106	117,8
Bo'stonliq	84	116	138,1
Bo'ka	85	88	103,5
Quyi Chirchiq	54	85	157,4
Zangiota	174	211	121,3
Yuqori Chirchiq	149	195	130,9
Qibray	205	307	149,8
Parkent	80	95	118,8
Piskent	59	76	128,8
O'rta Chirchiq	148	205	138,5
Chinoz	66	105	159,1
Yangiyo'l	104	152	146,2
Toshkent	103	129	125,2



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.06.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)




Ma'lumot uchun: viloyatida soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray (9,5 %), Chirchiq sh. (8,4 %) va Angren sh. (7,5 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **306,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **116,8 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,5 %** punktga ko'payib, **13,4 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zangiota tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,1 %** i yoki 2019- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **179,9 %**), Qibray (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,2 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **187,2 %**), va Yangiyo'l sh. (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,7 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,7** marta ko'p) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,4, %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,6 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **97,9 %** ni tashkil etgan holda **1545,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **19,2 %** ni tashkil etdi yoki **439,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019 - yilning yanvar- may oylariga nisbatan **83,1 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **44,2** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **90,5 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2246,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **96,7 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatidagi tutgan ulushi mos ravishda **1,9 %** va **98,1 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2020- yil yanvar-may

Toshkent viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-may

64,3 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 64,3 % i yoki **1473,0** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

71,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **217,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 71,2 % ni tashkil etdi.

54,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **839,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 54,3 % ni tashkil etdi.

94,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **416,0** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 94,6 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Toshkent viloyati	2291,1	96,6	100,0
Nurafshon sh.	104,8	94,5	4,6
Olmaliq sh.	85,4	92,4	3,7
Angren sh.	93,5	92,1	4,1
Bekobod sh.	80,2	93,3	3,5
Ohangaron sh.	77,8	96,8	3,4
Chirchiq sh.	113,8	93,5	5,0
Yangiyo'l sh.	49,4	97,7	2,2
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	66,7	90,3	2,9
Ohangaron	62,6	91,6	2,7
Bekobod	67,7	93,6	3,0
Bo'stonliq	130,8	104,9	5,7
Bo'ka	60,7	94,4	2,6
Quyichirchiq	50,1	101,4	2,2
Zangiota	298,0	100,8	13,0
Yuqori Chirchiq	129,0	90,8	5,6
Qibray	205,6	102,0	9,0
Parkent	125,5	96,2	5,5
Piskent	76,1	92,8	3,3
O'rta Chirchiq	97,2	93,1	4,2
Chinoz	62,1	95,1	2,7
Yangiyo'l	82,2	90,0	3,6
Toshkent	171,9	106,2	7,5



Viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2019- yil yanvar-may

16,3



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

14,0



Fuqarolik obyektlarini qurish

69,7



Binolar va inshootlarni qurish

2020- yil yanvar-may

21,0



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

13,7



Fuqarolik obyektlarini qurish

65,3



Binolar va inshootlarni qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **14,6 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,4 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,5 %** punktga ko'payib, **56,1 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,9 %** punktga kamayib, **29,3 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **27,9 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **8,3 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **72,1 %** (**8,3 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2,4 %** punktga kamaydi va **0,1 %** ni tashkil etdi. Qolgan **99,9 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2,4 %** punktga ko'paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Zangiota
298,0

2

Toshkent
171,9

1

Qibray
205,6

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Bo'ka
60,7

2

Yangiyo'l sh.
49,4

1

Quy Chirchiq
50,1

3





Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 230-86-71